

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
CBT.....7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA .....26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI .....30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) .....33-37

*Норов Шуҳрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) .....38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) .....42-43

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI.....44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI .....48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI .....64-66

<i>Abduraimova Nigora</i>	
TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i>	
MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i>	
TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i>	
INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
<b>FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Gafurova Munojat</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i>	
ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....	93-98
<b>FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yusufova Farangiz</i>	
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i>	
O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i>	
IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i>	
CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuz</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) .....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i>	
"MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i>	
"DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i>	
TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbanova Aziza</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARING AHAMIYATI .....	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i>	
ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

*Qosimova Malika*

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH  
METODLARI ..... 137-140

*Ayimbetova Damekhan*

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA  
OBRAZLAR TIZIMI ..... 141-145

*Yo'lidasheva Mahliyo*

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI ..... 146-149

## ***YURIDIK FANLARI***

*G'ofurov Ramzbek*

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI ..... 150-154

*Turdibaeva Mukhaddas*

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES ..... 155-160

*Gafurova Shoira*

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM  
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI ..... 161-165

*Komilov Avazbek*

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI  
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR ..... 166-169

*Babajanov Farrux*

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS  
ETTIRISH ..... 170-175

## ***PEDAGOGIKA FANLARI***

*Nuriyllaeva Ugulxon*

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И  
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ..... 176-181

*Tursinova Zoxida*

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI  
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI ..... 182-191

*Babayeva Shahnoza*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI ..... 192-194

*Rasulova Baroxon*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV  
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI ..... 195-199

*Zokirjonov Akramjon*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI ..... 200-202

*Baratova Yulduz*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН  
YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ..... 207-210

**TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*  
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN ..... 211-213

*Mamadaliiev Xasanxon*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)  
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-  
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ..... 214-218

*Maxmudbekov Boburmirzo*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA  
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH ..... 219-221

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Usmanova Lilia*  
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ  
ТРАДИЦИИ ..... 222-225

**SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*  
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI ..... 226-231

## AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA

**Xasanova Nargiza Maxsatjonovna**

Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD)

**Annotation.** Maqolada mustaqillik yillarda O'zbekistonda ta'lif, ilm-fan rivojlanishi, uning huquqiy asoslari, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan ayol-qizlar izlanishlari, tarixchi olimalar faoliyati, shuningdek tadqiqotlar olib borishdagi muammo va kamchiliklar hususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro, ayol-qizlar, ta'lif, ilm-fan, ilmiy faoliyat, olma ayollar, statistika, viloyat, jamiyat, ona va bola, mustaqillik, huquqiy savodxonlik, tadqiqotchi olimalar.

## ABOUT SCIENTIFIC RESEARCH AND RESEARCH BY WOMEN

**Khasanova Nargiza Maksatjonovna**

Head of the Department of "Methodology of Socio-Economic Sciences" of the Andijan Regional Pedagogical Skills Center, Doctor of Philosophy (PhD)

**Annotation.** The article discusses the development of education and science in Uzbekistan during the years of independence, its legal framework, the research of women and girls engaged in scientific activities, the activities of historical scholars, as well as problems and shortcomings in conducting research.

**Key words:** international, women and girls, education, science, scientific activity, women scientists, statistics, region, society, mother and child, independence, legal literacy, research scientists.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-06>

### Kirish

Har qandey jamiyatning taraqqiyoti, mamlakat ilm-fan rivoji bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Bugungi kunga kelib ilm-fan takomillashishi uchun yaratilgan sharoitlar tufayli, yangi ilm cho'qqilari zabit etilmoqda, zamonaviy tadqiqotlarning amalga oshirilishi, ko'plab ixtiolar sabab aholining yashash sharoitlari yaxshilanmoqda. Insonlarga ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Bu jarayonda ayol-qizlarning faol ishtiroki quvonarli xoldir. Masalan tarixga nazar qaratsak insonlarga qulayliklar yaratgan ko'plab buyuk ixtiolar ayollar tamonidan ham amalga oshrilganiga guvox bo'lamiz.

XXI asrga kelib dunyo miqyosida xotin-qizlarning ilm olishi, ilmiy sohada izlanishi va turli tadqiqotlar olib borishi, ularning texnika va innovatsion yutuqlardan teng va to'laqonli foydalanishlariga imkoniyatlar yaratish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risida"gi rezolyutsiyasi qabul qilinib, unda ayol-qizlarni ilmiy-texnik hamjamiyatlarda muhim o'ringa ega ekanliklari va ularni taqdirlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish lozimligi belgilandi.

### Asosiy qism

O'zbekistonda ham ayollarning huquq va manfaatlarini muhofaza etish, oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, iste'dod, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ularni jamiyatning to'laqonli va teng huquqli, faol a'zosiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib huquqiy asoslari yaratidi [2].

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilanaganidek, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish maqsadida, mamlakatimizda ayol-qizlarning ham ilm-fan yo`nalishida izlanishlariga keng yo'l ochib berildi [1].

Hozirgi vaqtida 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olma ayollarimiz yaratayotgani ham, jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi, yoshlarimizni yangi-yangi yutuqlarga undaydi [3].

O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida olima ayollar safi kengayib, ilm-fan taraqqiyotida ayollar ulishi ortib bormoqda. Fanning turli sohalarida olima ayollar tomonidan yangilik va ixtiolar qilinmoqda. Ma'lumot o'rnida: YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, ayol-olimalar ulushi Rossiyada – 41%, Fransiyada – 26%, Germaniyada – 28%, Buyuk Britaniyada – 38%, Xitoyda – 37%, Janubiy Koreyada – 18%, O'zbekistonda esa 48%ni tashkil qiladi [4]. Bu albatta yaxshi ko'rsatgich biroq shunday bo'lsa-da, bugungi tezkor axborot almashinuvi bo'layotgan bir paytda jahon ilm-fani bilan raqobatlashish uchun ilmiy-tadqiqot olib borayotgan olima ayollar mehnatini yanada rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirish zarur.

### Muhokama

Tahlillarga ko'ra ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan ayollarning 49,6 foizi Toshkent shahriga, qolgan foizlar viloyatlar kesimiga to'g'ri kelayotganini inobatga olinsa, viloyatlarda olima ayollar safini kengaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash, ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyat darajasini oshirish, bu borada tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish, moliyaviy ko`mak masalalarini ko`rib chiqish, zarur.

Statistika bergen ma'lumotlarga ko'ra so'nggi yillarda aniq va tabiiy fanlar yo`nalishlarida (3312 nafar), filologiya fanlarida (2066 nafar), pedagogika fanlarida (1556 nafar), tadqiqotchi olimalar ilmiy tadqiqotlarini ko`proq amalga oshirganligi aniqlangan. Biroq ijtimoiy-gumanitar xususan tarix fanlari yo`nalishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimalar 2015 yilda 555 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatgich 388 nafarga tushib ketgan. Bu ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan (2023 yilda 13336 nafar) olimalar umumiyl ulushining 2.9%ga teng degani [5]. Buni o'ziga xos obektiv va subyektiv sabablarini bor albatta, ularning ayrimlarini keltirib o'tilsa, masalan aniq va tabiiy fanlarda yoki tibbiyot fanlarida amaliy jihatdan anqlik bor, natija va xulosani amaliyatda qo'llab ko'rib natija olish mumkin, biroq tarix fanlari manbalar va adabitotlar tahliliga suyanadi, ularni sinchiklab o`rganadi, tahlil qiladi, taqqoslaydi va tahlil qiladi, materiallarni solishtirib qiyosiy tahlil qiladi so`ngra xulosa qilishga harakat qiladi, manbalar yetishmasa og`zaki so`rovnomalar olishga harakat qiladi, manbalar bir xil natijani bersagina yakuniy xulosa qila olishi va muammoning amaliy echimini topishi va tavsiyalar berishi mumkin.

Ma'lumki ilmiy ishdan maqsad ilm bo'lishi kerak. Haqiqiy ilmgina rostdan ham qadrli, insonlarga foydalidir. Ilmiy ish qilish jarayoni bu bir hodisani ilmiy jihatdan tushuntirish uchun u xususida uzoq muddat o'ylanish va izlanish degani. “Ilm – igna bilan quduq qazishdir” degan o'xshatish jarayonning mohiyatini yanada yaxshi ochadi, chunki ilmiy ish qilish jarayonida izlanuvchi hamma ko'rib turgan hodisaning hech kim ko'rmagan, ko'rolmaydigan

tafsilotlarini aniqlaydi. Ilmiy ish biror yangilik (kichik bo'lsa-da) avvalgi olimlarnikidan farqlanishi va muhokama, xulosa qismida qilingan yangi metodning ijtimoiy soha (masalan, ta'lif, tibbiyot, iqtisod, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqalar) ga ahamiyati qandayligi yozilishi va uning natijasi samarali, muammolarga echim bo'lishi kerak.

**Xulosa** o`rnida shuni aytish mumkinki ilm-ma'rifatli ayol jamiyat taraqqiyotining asosidir. Bu haqida nech asrlardan beri ko`plab mulohazalar yuritilgan va asoslangan. O'zbekistonda ayollarning 90 foizdan ortig'i savodli. Imkon berilsa ular oliv ma'lumot va kasbdan qochmaydi. Tadqiqotlarga ko`ra ularning 72 foizi ilm-fan sohasiga qiziqish bildirgan va o'zlarini shu yo'nalishda sinab ko'rish istagini bildirgan. Bu esa ilm-fan rivojida ayollarning rolini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Biroq so'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratilayotgan bo'lsa-da, ilmiy faoliyatni tanlagan xotin-qizlarning 65 foizi ijtimoiy to'siqlar bilan yuzlashayotgani aniqlangan. Bunga ko`plab omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, ayrim oilalarda qizlarning ilm bilan shug'ullanishi ikkinchi darajali masala sifatida ko'riladi, ularning ilm-fan yoki akademik faoliyat olib borishi odatiy hol emas. Jamiyatdagi ayrim stereotiplar ham bu jarayonga salbiy ta'sir o'tkazadi. Jamiyatimizda ko'pchilik ayollar o'z intilishlarini oiladagi ijtimoiy majburiyatları oldida qurbon qilishga majbur bo'ladi. Ilm bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanish istagini bildirayotgan ayollarning yarmi ilmiy faoliyat va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Aholi o'rtasidagi an'anaviy qarashlarga ko`ra esa jamiyatda ayolning asosiy vazifasi — uy ishlari, bola tarbiyasi va oila parvarishi ekan haqida tushunchalar o'z kuchini saqlab qolmoqda. Bu ilm-fan bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan xotin-qizlarga qo'shimcha bosim yaratadi. Biroq adabiyotlarda yozilishicha "Ayolning aqli va qalbi bo'm-bo'sh bo'lsa, unda na maktab madaniyati, na masjid ibodati bo'lmasa, undan kutilgan tarbiya qayerdan paydo bo'lardi?! Ayoli faqat taom hozirlash va rohat bag'ishlashgagina yaroqli jonzot bo'lgan jamiyat, aslo isloh bo'lmas jamiyatdir" deb ta'rif etilgan ekan, ayol-qizlarning ilm-olishi, izlanishi muhim masalalardan. Demek aholi o'rtasida ayol-qizlar tarbiyasida bilim va kasbiy kelajak olg'a surilishi va bilimli ayol jamiyat boyligi hamda quvvati ekan uqtirilishi lozim. Jamiyat kelajagining rivoji yoshlarning qanchalik ta'lim-tarbiya ko'rganligiga bog'liq ekan ularning tarbiyachisi bo'lgan ayollar, onalar ilm-ma'rifatli bo'lmosi shart va zarurdir. Ularning tadqiqotlar qilishi, ilmiy izlanishlar olib borishi esa yana bir katta kuch, bugungi global o'sish va rivojlanish intelektida jamiyat rivojiga katta xissa demakdir.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida 11.09.2023 yildagi PF-158-son, Farmoni. <https://lex.uz/docs/-660041>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 2- fevraldagagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son, 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2022-yil 7- martdagagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmonlari, 2019-yil 7- martdagagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini

yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son, 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarorlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan. 2025 yil 6 mart.  
<https://president.uz/oz/lists/view/7928>
4. <https://www.academy.uz/uz/news/ozbekiston-olima-ayollari-forumi-otkazildi>
5. <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/ta-lim#>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. <https://lex.uz/ru/docs/-3244217>

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.